

Rishton tumani.

“31” oktyabr 2022 y

Bizlar kim imzo chekib shartnomaga tuzuvchilar kelgusida «Sotuvchi» deb ataluvchi «Samo ko'rki» MCHJ raxbari O.Sayfiddinov bir tomonidan va kelgusida «Sotib oluvchi» deb ataluvchi Rishton tumani maktabgacha ta'lim bo'limi o'z Nizomi asosida faoliyat yurituvchi raxbar M. Dadajonova ushu shartnomani imzolash bilan kuyidagilar kelishildi.

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 “Sotuvchi” ushu shartnomaga asosan “Sotib oluvchiga” o’zaro kelishilgan miqdorda va muddatlarda shartnomaning umumiy qiymatidan oshmagan summadagi mahsulotlarni etkazib beradi, “Sotib oluvchi” etkazib berilgan mahsulotlarni qabul qilib olib, to’lov xujjatlarini amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtirib, belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Nº	Mahsulot nomi	o'l.bir	miqdori	narxi	summasi
1	Quyosh paneli	dona	1	79000000	79 000 000,0
2	Jami				79 000 000,0

I. SHARTNOMA BAHOSI, MAXSULOT ETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOB TARTIBI

2.1 Mazkur shartnomaning umumiy qiymati **yetimish to'qqiz million** so'mni tashkil etadi.

2.2 “Sotuvchi” tomonidan mahsulotlari “Sotib oluvchi”ning talabiga ko‘ra bosqichma-bosqich etkazib beriladi.

2.3 “Sotib oluvchi”ga mahsulotlar “Sotuvchi”ning transportida 30 (uttiz) kun muzddat ichida etkazib beriladi.

2.4 “Sotuvchi” tegishli davrda tomonlarning o’zaro kelishuviga muvofiq belgilangan miqdorda va muddatlarda mahsulotlarni etkazib beradi.

2.5 “Sotib oluvchi” «Sotuvchi» taqdim etgan xujjatlarga asosan uzil-kesil xisob-kitobni o’zaro kelishilgan muddatlarda “Sotuvchi” hisob-raqamiga pul o’tkazish yo’li bilan amalga oshiradi.

2.6. Maxsulot etkazib berish davrida maxsulotlarning narxlari o’zgargan taqdirda “Sotuvchi” yoki “Sotib oluvchi” tashabbusi bilan mazkur shartnomaga qo’shimcha kelishuv shartnomasi tuzilishi mumkin.

2.7. “Sotib oluvchi” “Sotuvchi”ga olinadigan tovarining 30 (o’ttiz) foiz xaqini oldindan o’tkazib beradi, tovarning qolgan summasini 30 bank ish kuni mobaynida kechiktirmay to’liq to’lovini ta’minlaydi.

III. SHARTNOMANI BAJARILISHI

3.1. SHartnoma mazkur shartnomaga va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak.

Agar tomonlar o’z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta’minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

3.2 “Sotib oluvchi” tomonidan talabnomani mahsulotlarning tegishli turkumlarini etkazib berishning mo’ljallanayotgan sanasigacha kamida 3 kun oldin chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Talabnomani chopar orqali qabul qilishda “Sotuvchi”ning xodimi “Sotib oluvchi”da qoladigan nusxaga sanani ko’rsatgan holda u qabul qilinganligi to’g’risida belgi qo’yadi.

3.3. “Sotib oluvchi” ilgari berilgan talabnomani bekor qilishga yoxud mahsulotlarning tegishli turkumlarini etkazib berish sanasini o’zgartirishga haqlidir, bu haqda “Sotuvchi”ni talabnomada ko’rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

3.4. “Sotib oluvchi” muddatlar buzilgan holda etkazib berilgan mahsulotlarni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

3.5. “Sotib oluvchi” “Sotuvchi” tomonidan mahsulotlar o’z vaqtida etkazib berilmagan yoki sifatsiz mahsulotlar etkazib berilgan holatlarda shartnomani “Sotuvchi” ni yozma xabardor qilgan holda bir tomonlama bekor qilishi mumkin. Qolgan holatlarda shartnoma shartlariga tegishli o’zgartirishlar tomonlarning o’zaro qo’shimcha kelishuvlariga muvofiq kiritiladi.

IV. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

“Sotuvchi”ning majburiyatları:

4.1 “Sotuvchi” etkazib beriladigan mahsulot sifatini O’zbekiston Respublikasining amaldagi me’yorlarga muvofiq bo’lishini xamda tegishli sifat sertifikati yoki taxlil (tekshirish) bayoniga ega bo’lishini va o’zaro kelishilgan miqdorda bo’lishini ta’minlaydi. Aks xolda mahsulotlari “Sotib oluvchi” tomonidan qabul qilinmaydi.

4.2 “Sotib oluvchi”ga mahsulotlarni etkazib berish vaqtida tegishli sifat sertifikat yoki taxlil (tekshirish) bayoni nusxasini taqdim etadi.

4.3 Mahsulotlarini qabul qilib olish vaqtida aniqlangan kamchiliklarni “Sotib oluvchi” talabiga muvofiq 3 kunlik muddatda bartaraf etadi.

4.4 “Sotib oluvchi” tomonidan sotib olingan maxsulotlariga 3 oy muddat utgandan sung narx-navo va sifatiga bulgan da’vo «Sotuvchi» tomonidan kabul kilinmaydi.

“Sotib oluvchi”ning majburiyatları:

4.5 O’z talabnomasi bo’yicha etkazib berilgan mahsulotlarni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

4.6. Mahsulotlarni mazkur shartnomada ko’rsatilgan narx bo’yicha belgilangan muddatlarda uzil-kesil xisob-kitobni amalga oshirish.

4.7. SHartnomani amal qilish davrida "Sotuvchi" tomonidan davlat manfaatlari zarar etkazish xolatlari aniqlangan taqdirda shartnomani bir tomonlama bekor qilishga xaklidir.

V. SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

5.1. Agar «Sotuvchi» tomonidan «Sotib oluvchi»ga sifatsiz, yoki saklash muddatlari utib ketgan maxsulotlarni etkazib berilgan xolda «Sotib oluvchi» «Sotuvchi»dan bunday maxsulotlarni umumiy kiymatidan 20%, jarima qullab, konunchilikda belgilangan tartibda undirib olinadi.

5.2. Agar «Sotuvchi» tomonidan «Sotib oluvchi»ga belgilangan maxsulotlar belgilangan muddatlarda etkazib berilmasa, «Sotuvchi» muddati utgan har bir kun uchun kechiktirilgan mahsulot kiymatining 0,5% mikdorida lekin kechiktirilgan maxsulot kiymatining 50% dan oshmagan xolda «Sotib oluvchi»ga penya to'laydi.

5.3. Agar «Sotib oluvchi» «Sotuvchi»dan olingan maxsulot pulini belgilangan muddatda to'lab bermasa, muddati o'tgan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,4% mikdorida, lekin kechiktirilgan tulovning 50% oshmagan mikdorda penya tulaydi.

5.4. Jarimalar tulanishi «Sotuvchi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'raq, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

VII. FORS-MAJOR

7.1. Fors-major xolatlar, jumladan er qimirlashi, sel kelishi kabi tabiiy ofatlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan yangi qonun va qarorlarni qabul qilinishi natijasida kelib chiqadigan xolatlarda taraflar mazkur shartnoma va qo'shimcha kelishuvlar shartlarini bajarish mas'uliyatini o'z zimmalariga olmaydilar.

VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

8.1. Mazkur shartnoma "Sotib oluvchi", "Sotuvchi" tomonidan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi va 2022 yil "31" oktyabr 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

8.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

9.1. SHartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish majburiyatini oladilar meyoriy hujjatlarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini taminlaydi; bir-birining tomonlari yoki davlat mansabdor shaxsiga pora berish yoki vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy manfaatlardan qochishk Tomonlar bunday xatti-harakatlarning oldini olish uchun choralar ko'rilib qilishini kafolatlaydi

9.2 Korrupsiyaga qarshi kurash qoidalari buzilganligi yoki asosli shubha tuilganligi to'risida tomonlar darhol yozma ravishda xabardor qilishlari shart. Bir-birlarini shaxs (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali xabardor qilish majburiyati oladi. Bunday holda, tomonlar vaziyatni aniqlashtirish uchun yozma tushuntirishni talab qilishga haqli. Mulkdor va murojaatni qabul qilgan tomon 10 (o'n) ish kuni ichida tushuntirish berishga yoki o'z fikrini bildirishga majburdir.

9.3 Ushbu bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan korrupsiya xavfini belgilangan muddatlarda bartaraf etilmagan taqdirda taraflar tomonidan ko'rigan choralar korrupsiya holatining pasayishiga olib keladi. Aks holda, boshqa tomon shartnomani bekor qilishga yoki uning bajarilishini to'xtatib qo'yishga haqli

9.4 Sotib oluvchiga etkazib berilgan maxsulot uchun barcha tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda xisob-varaqani Rasmiylashtirish sanasi Sotiboluvchi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

9.5 Ushbu shartnomaning barcha shartlari kalendar kunitan keyingi kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqeal sodir bulgan kundan boshlab hisoblanadi.

X. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning ikkala nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

ALOXIDA SHARTLAR

XI. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari:

«Sotuvchi»

«Samo ko'rki » MCHJ

(mol etkazib beruvchining nomi)

Manzil: Oltiariq tuman

Tel./faks:

h/v: 20208000200894239001

Bank nomi: Asakabank Farg'ona filali

MFO: 00539 STIR: 305619925

OKONX :



O.Sayfiddinov
(F.I.SH)

Rahbar
(lavozim)

M.O.



«Sotib oluvchi»

Rishton tuman MTB

(byudjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil: Rishton shahar

Tel./faks

sh/xr: 100022860302247091100251035

byudjetdan mablag' oluvchi STIR: 305154421

OKONX: 85100

O'zb.Resp.Moliya Vazirligi G'aznachiligi Yagona G'azna

Xisob varagi

G'azna h/r 23402000300100001010

Bankning nomi Markaziy bank Toshkent sh. Bosh boshkarmasi
xisob kitob kassa markazi

MFO 00014

g'aznachilik bo'linmasi STIRI 201122919

M. Dadajonova
(F.I.SH)

M/

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

DG3075336678

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Umumiy summasi 79 000 000 (yetimish to’qqiz million) so’m bo’lgan quyosh paneli yetkazib berish uchun Samo ko’rki» MCHJ raxbari O.Sayfiddinov va «Rishton tuman Maktabgacha Ta’lim Bo’limi» uz Nizomi asosida faoliyat yurituvchi raxbar M.Dadajonovalar o’rtalarida tuzilgan shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: RISHTON TUMAN MAKTABGACHA TA’LIM BO’LIMI tomonidan 26.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Rishton tumani
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:**



D.R.ALIBOYEV

31.10.2022